

## TURK TILIDA SO‘Z YASALISHINING QIYOSIY TAHLILIGA OID

Xodiyeva Iroda Nizomiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
1-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Quyida turk tilidagi fe’l yasalishiga olingan, asli nisbat shakllari so‘z yasalishi uchun asos bo‘la olmasliklari xususida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** turk tili, so‘z yasalishi, fonetik xususiyatlari, morfoligik xususiyatlari, o‘zak, qo‘srimcha, nisbat qo‘srimchasi, neologizm, tilshunoslar, affikslar.

### ABSTRACT

Below is information about the fact that the relative forms taken from the Turkish language cannot be used as a basis for word formation.

**Keywords:** Turkish language, word formation, phonetic features, morphological features, root, suffix, relative suffix, neologism, linguists, affixes.

### АННОТАЦИЯ

Ниже приводится информация о том, что относительные формы, взятые из турецкого языка, не могут быть использованы в качестве основы для словообразования.

**Ключевые слова:** турецкий язык, словообразование, фонетические признаки, морфологические признаки, основа, суффикс, относительный суффикс, неологизм, лингвисты, аффиксы.

### KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o‘rganish, o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o‘z navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni etishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijilik tilshunoslar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan. Quyida turk tilidagi fe’l yasalishiga olingan, asli

nisbat shakllari so‘z yasalishi uchun asos bo‘la olmasliklari haqida ma’lumot beriladi.  
So‘z yasalishi (Kelime Yapimi)

Hozirgi zamon turk tilida qo‘llanib kelinayotgan so‘z va atamalar uch xil y o ‘l bilan yuzaga kelgan. Bulardan birinchisi. faollashtirilgan neologizmlar sifatida zamonaviy turk tiliga kirgan arab, fors va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarining muqobillaridir. Masalan: kuyku - yilphe (shubha, hadik), alan - saha (maydon) kabi. Ikkinchisi. turk tilidagi dialektlardan tanlash yo‘li bilan yuzaga kelgan: geke (kichik omoch), divlek (pishmagan qovun), gomge (yog‘och qoshiq, cho‘mich) va h. Turk tilining dialektlar lug‘atiga kiritilgan bu so‘zlar badiiy asarlar orqali shevadan o‘zlashtirilgan. Uchinchisi, turk tilining so‘z yasash vositalaridan foydalanish yo‘li bilan yaratilgan yangi so‘zlar. neologizmlardir. Bu har qanday tilda so‘z yasalishining eng sermahsul yo‘li hisoblanadi, Bunda mahsuldor affikslarning o‘rni i salmoqli: -li, -siz, -lik, -ce va b. Sof turkcha -ak, -men, -cil affikslari va boshqa tillardan o‘zlashtirilib, turkchalashtirilgan -sel, -toy, -ev affikslari kam uchraydi. Turk tilida so‘z yasalishida konversiya usuli ham keng qo‘llanadi: yazar (yozuvchi), bakan (vazir) kabi. So‘zlarni qo‘shish y o‘li bilan ham qator so‘zlar yasalgan: agirba\$h (og‘ir-vazmin), dedikodu (g‘iybat), yiiziyil (asr), onsoz (so‘z boshi), basimevi (bosmaxona) kabi.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar va o‘zaklarning to‘rttadan turi mavjud. Aslida o‘zak so‘z yasalishining asosiy xom ashyosidir. Shu bois uni so‘z yasalishi mavzusiga tegishli deymiz, ammo bu atama ancha sodda o‘zaklarga nisbatan qo‘llanadi.

Turk tilida so‘z yasalishining uch turi ajratiladi:

1. Otdan (ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib) ot yasalishi: yama-ci (yamoqchi), goz-luk-gu (ko‘zzoynak yasovchi yoki unisotuvchi), i\$-gi-lik (ishchilik), avukat-hk (advokatlik) kabi.

2. Otgan fe’l yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib fe’l yasalishi: izle-mek (ta’qib etmoq, tomosha qilmoq), bigak-la-mak (pichoqlamoq), firga-la-mak (cho‘tkalamoq, tozalamoq) kabi.

3. Fe’lga ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib (fe’ldan) ot yasalishi: sat-ici (sotuvchi), bil-im (bilim), kur-um (muassasa) kabi.

Undan tashqari, turk tilshunosligida f e ’l shakllarining yasalishi ham so‘z yasalishining bir turi hisoblanadi. Shu boisdan so‘z yasalishining to‘rtinchi turi ham ajratiladi (fe’l yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib (fe’ldan) fe’l shakllari yasalishi): sez-dir-mek (sezdirmoq), gor-ish (ko‘rishtirmoq, uchrashtirmoq) kabi.

! Turk tilining nazariy grammatikasi: o‘quv qo‘llanma / ..Xudoyberganova, X.Hamidov - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -320 b.

So‘zning o‘zak va qo‘shimchalaridagi o‘zgarishlar xususida shuni aytish kerakki, turk tilida so‘zning yasalish vaqtı juda muhim. Chunki so‘zning o‘zagi ham, qo‘shimcha ham jonli unsurlar bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘z shakli va m a’nosini o‘zgartirishi mumkin. Qolaversa, tilda qollanm ay qolgan, eskirgan o‘zak va qo‘shimchalar ham talaygina. Shu bilan birga, birdan ortiq m a’noga ega boigan o‘zak va qo‘shimchalaming qaysi m a’noda kelayotganini yaxshi bilish kerak. Chunki so‘z shundan kelib chiqqan holda m a’no kasb etadi: ya§ (yosh, toza), yagarmak (yasharmoq), (keksa), ya§lanmak(keksaymoq, qarimoq) kabi.

Turk tilida asl fe’llar f e ’l o‘zagining m a’nosini o‘zgartiruvchi bir qancha qo‘shimchalar vositasida yuzaga keladi. Grammatika nuqtai nazaridan bunday o‘zgarishlar fe’l nisbat qo‘shimchalari qo‘shilishi natijasida yuz beradi. Lug‘aviy m a’noda mustahkam o‘zgarish yuzaga keltirgan va yangi so‘zlar yaratuvchi f e’l qo‘shimchalarini turk tilshunoslsri so‘z yasovchi qo‘shimchalar deb atashadi. Lekin umumiyl tilshunoslik nuqtai nazaridan fe’ld an fe’l yasalishi mumkin emas. Fe’ldan faqat f e’l shakllari yasalishi mumkin.

### XULOSA

Fikrimni xulosa qiladigan bo‘lsam , Fe’l turkumi, boshqa so‘z turkumlari kabi, o‘ziga xos so‘z yasalishi va shakl yasalishi tizimiga ega ( So‘z yasalishi, Shakl yasalishi). Yasama Fe’llar- la, -lan, - lash, -lantir, -lashtir affikslari hamda qil, et (ayla) yordamchi fe’llari bilan hosil qilinadi: olqishlamoq, ruhlanmoq, birlashmoq, jabr qilmoq, ruxsat etmoq.Ammo quyidagi keltirib o‘tgan misollarimizni turk tilida( fe’l+fe’l ) qolipidagi so‘z yasalishi deb olingani xato hisoblanadi. Bu borada olimlarimiz izlanishlar olib borishib bitta tugal, xulosaga kelishgani yo‘q .Ammo so‘z yasalishi uchun asosdan ma’no o‘zgarishi kerak sez-dir-mek (sezdirmoq), gor-ish (ko‘rishtirmoq, uchrashtirmoq) kabi misollarda esa nisbat shakllari so‘z yasalishi uchun asos bo‘la olmaydi. Fe’l nisbat qo‘shimchalari fe’l o‘zagi ma’nosini o‘zgartirgan holda yangi shakllar hosil qiladi. Faqat bo‘lishsiz fe’l negizlar yangi shakllarda rivojlanmaydi. Shu bois nisbat (gati) qo‘shimchalari ham ko‘zdan kechiriladi. Fe’l shakllari yasovchi qo‘shimchalar orasida tarixiy kirishuv ro‘y berib kelgan. Bugungi kunda turk tilshunoslari tomonidan yasovchi qo‘shim cha sifatida qabul qilingan qo‘shimchalardan ko‘philigining qadimda nisbat qo‘shimchalari yoki qo‘shm a shakllar ekanligini ta‘kidlamoq kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abduraxmonova M. O‘zbek va turk tillarida ot kategoriylarining talqini: Filol fan. Nomz ... dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b
2. Айляров III.С. Развёрнутые члены предложения в современном турецком языке .-М.: Изд. МГУ, 1974. - 227 с.

3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözçük Türleri. - Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi, 1976. S.
4. Turk tilining nazariy grammatikasi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / ..Xudoyberganova, X.Hamidov - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -320 b.
5. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Söz dizimi.-İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
6. Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. –S. 268.
7. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul: İnkilap, 1986.-754 s.
8. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkilap:19.-s.
9. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, -C,3.-S.2159.